

Nizomiy nomidagi TDPU

Tarix fakulteti Tarix yo‘nalishi

4-bosqich talabasi Uralov Ulug‘bek

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi tarixshunosligini o‘rganish va tahlil qilish borasidagi mustaqillik yillari va 2000 - 2020 yillarda yozilgan asarlar va ularning tariximizni qay darajada o‘rganishga yordam berishi yuzasidan batafsil ma‘lumotlar berib o‘tilgan.*

Asosiy qisim. Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan globalashuv jarayoni har bir xalqning o‘zligini va davlatchilik an‘analarini saqlab qolishni hamda taraqqiyot yo‘lini belgilashini taqozo etadi. Shu boisdan bugungi kunda jahon tarixiy taraqqiyotida o‘zining ma‘naviy va madaniy merosi hamda davlatchilik an‘analari bilan muhim o‘rin tutgan o‘zbek davlatchiligi tarixini chuqur tadqiq etish ahamiyatli hisoblanadi. Jumladan, O‘rta Osiyo hududida o‘zining geosiyosiy joylashuvi jihatidan va qo‘shni davlatlarning o‘zaro siyosiy, madaniy hamda iqtisodiy munosabatlari kabi muhim strategik jarayonlarida o‘ziga xos chuqur iz qoldirgan Qo‘qon xonligi tarixini holisona o‘rganish mintaqa tarixini yoritish uchun muhim hisoblanadi. So‘nggi yillarda o‘zbek davlatchiligi tarixiga, xususan Qo‘qon xonligi davlatchiligiga bo‘lgan e‘tibor xalqaro miqyosda ham ortib bormoqda. 2019-yildan buyon har ikki yilda bir marta YUNESKO shafeligida Xalqaro hunarmandchilik festivalinining aynan Qo‘qon shahrida o‘tkazilishi va 2022 yilning 8-10 iyun kunlari Qo‘qon shahrida “Qo‘qon xonligining Turkiy xalqlar davlatchiligi rivoji va madaniy merosida tutgan o‘rni” mavzusida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada 20 dan ortiq xorijiy davlatlardan tadqiqotchi, olimlar bilan bir qatorda xalqaro tashkilot (Turkiy davlatlar tashkiloti, Xalqaro turk madaniyat tashkiloti (Turksoy)) va ekspert

hamjamiyatlarining ishtirok etganligi Qo‘qon xonligi davlatchiligi masalasini dolzarbligini belgilovchi omil sifatida ko‘rsatish mumkin. ¹

Mustaqillik yillarida Qo‘qon xonligining barcha sohalarini qamrab olib, mukammal tarzda tarixshunoslik tadqiqoti amalga oshirilmadi. Shunday bo‘lsada, tadqiqotchilar tomonidan xonlikning ayrim sohaları doirasida tarixshunoslik tadqiqotlari olib borildi. Masalan, G‘.Ahmadjonovning 1995 yilda rus tilida chop etilgan “Российская империя в Центральной Азии (история и историография колониальной политики царизма в Туркестане) nomli asarida hamda keyinchalik ushbu asarning yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan o‘zbek tilidagi nashrida muallif xonlikning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va uchala o‘zbek xonliklarida Rossiya imperiyasi hukmronligining o‘rnatilish xususidagi tadqiqotlarga taaluqli ilmiy ishlarni tahlil etib, ularga nisbatan o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tgan. Mazkur asarda olim mustamlaka va sovet davrida yaratilgan asarlarni tahlil etish bilan birga, ushbu masalaga Markaziy Osiyo Respublikalari tarixchilarining hamda jahon hamjamiyatining munosabatlarini ham o‘rgangan. Qo‘qon xonligi va Rossiya imperiyasi diplomatik aloqalari tarixshunosligi masalasini 1951–2000 yillar doirasida o‘rgangan V.T. Ishquvatov mazkur tadqiqotda sovet davri adabiyotlari bilan birga mustaqillikning dastlabki o‘n yilligida muammo yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning tahlilini keltirib o‘tadi. N.R. Topildiyev ham o‘zining bir qator tadqiqotlarida V.T. Ishquvatov singari ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalar tarixshunosligiga e’tibor qaratganini ko‘rish mumkin . B.M. Babadjanovning doktorlik dissertatsiyasi va monografiyasida xonlikning siyosiy va ijtimoiy hayoti islom ta’limoti va yo‘l-yo‘riqlari bilan bog‘liq holda o‘rganilib, mazkur masalalar mahalliy manba va tadqiqotlar asosida ko‘rib chiqilgan. Z.A. Ilhomovning qator tadqiqotlarida Qo‘qon xonligining tarixshunoslik va manbashunoslik masalalariga to‘xtalib o‘tilgan. Muallifning “Qo‘qon xonligi tarixshunosligining ayrim masalalari” nomli kitobida xonlik tarixiga oid mustamlaka va sovet davrida yaratilgan ilmiy asarlarga batafsil to‘xtalib, ularning tahlilini amalga oshirgan.

¹ Yakobjanov Jasur Jamshitjonovich. O‘zbekiston zamonaviy tadqiqotlarida qo‘qon xonligi davlatchiligi masalasi (tarixshunoslik tahlili) [Matn]: monografiya / J.J. Yakobjanov. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 5 b.

Muallif o'z tadqiqotlarida aksariyat tarixchilardan farqli ravishda Qo'qon xonligining diplomatik aloqalarida faqat Rossiya bilan chegaralanib qolmasdan, xonlikning bir qator xorij davlatlari bilan aloqalari yoritilgan adabiyotlarni tahlil qilishga harakat qilgan .²

Qo'qon xonligini o'rganishga nafaqat mahalliy, balki xorij tarixchilari tomonidan ham doimo e'tibor qaratib kelingan. So'nggi yillarda ushbu tadqiqotchilar orasida qo'shni respublika tarixchilari mazkur masalaga ko'proq e'tibor qaratayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Jumladan, Tojikistonlik tarixchi S.Elshibayevning tadqiqotidan Janubiy Qozog'iston va Qo'qon xonligi o'rtasidagi siyosiy jarayonlar, keyinchalik uning bo'ysundirilishi, ikki o'rtadagi ijtimoiy-iqtisodiy va etnik aloqalar kabi masalalar o'rin olgan³. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Qirg'iziston va Qozog'istonlik tarixchilari tomonidan Qo'qon xonligi xususida amalga oshirilgan ko'plab tadqiqotlar uning siyosiy tarixi va bevosita Aliquli Amirlashkarning faoliyatiga aloqadorligini ko'rish mumkin. Jumladan, B.Aytay, O'.Ebdiraman, B.Abitov, M.Akmatov, T.Kenensariyevlarning tadqiqotlarida yuqoridagi masala o'rin olgan. Z.Ilhomovning ko'rsatib o'tishicha, Qo'qon tarixnavislik maktabida yaratilgan tarixiy asarlarda umumiy maqsad xonlik tarixini yoritib berishga qaratilgan bo'lsada, ushbu jarayonlarni yoritib berishda ularning tarixiy, davriy va boshqa jihatlarini kuzatish mumkin³¹. Shu jihatlari bilan har bir tarixiy asar o'z o'rniga ega sanaladi. Shuningdek, muallif manbalarda tarixiy jarayonlarning tavsifida voqelikka nisbatan mualliflar tomonidan yo'l qo'yilgan bo'rttirilish, ayrim hollarda voqelikdan chetga chiqib, badiiylikka yaqinlashuv holatlarini ham ko'rish mumkinligini Sharq tarixnavisligining umumiylikka xos bo'lgan xususiyatlaridan biri sifatida ko'rsatib, Qo'qon tarixnavislik maktabiga xos asarlarda ham bu holatlarning ko'zga tashlanishini aytib o'tadi. Shuni ham qayd etish lozimki, Qo'qon mahalliy tarixchilari tomonidan yaratilgan asarlar nafaqat O'zbekistonda, balki xorijiy mamlakatlarda ham o'rganilib, nashr etila boshlandi.

² Yakobjanov Jasur Jamshidjonovich. O'zbekiston zamonaviy tadqiqotlarida qo'qon xonligi davlatchiligi masalasi (tarixshunoslik tahlili) [Matn]: monografiya / J.J. Yakobjanov. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 7 b.

³ Елшибаев С. Южный Казахстан и Кокандское ханство в XVIII – середине XIX веков.: Автореф. дисс ... канд. ист. наук. – Душанбе, 2013. – 27 с.

Jumladan, 1993-yilda Tohir Xo‘jandiyning “G‘aroyibi sipoh” asari Tojikiston Respublikasining Xo‘jand shahrida nashr etildi . O‘zbek va yapon olimlari B.Babadjanov, SH.Vohidov va X.Kamatsularning hamkorligi natijasida 2002-yilda Muhammad Yunusxo‘ja Toibning “Tuhfai Toib” asari Yaponiyada chop etildi. Bu muallifning “Hadiqat ul-anvor” asari esa hali nashr etilmagan. Bu borada yana bir e‘tiborga molik masalalardan biri Abd ul-Qodir ibn Muhammadaminning “Majma’ al-ansob va-l-ashjor” asarining 2005-yilda Qozog‘istonda SH.Vohidov, A.Muminov va B.Aminovlar tomonidan nashr etilishi bo‘ldi. Ushbu manba xonlikning siyosiy tarixi, xususan uning tashkil topishi jarayonidagi voqealarning mukammal bayoni, hukmdorlarning to‘liq tarzda bayon etilgan shajarasi bilan ajralib turadi.⁴ Bundan tashqari, ushbu manba hozirgacha o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan emas.

Xonlik tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutuvchi Ziyovuddin Mahzuniyning “Farg‘ona hukmdorlari tarixi” asari esa 2007-yilda Qirg‘izistonda chop etildi . Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda mazkur asar Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanib kelinmoqda. Tojikistonlik tarixchi J.Abdukarimov esa “Muntaxab at–tavorix” asari asosida dastlab nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab , so‘ngra o‘z monografiyasini chop ettirdi . Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinadiki, O‘zbekiston tarixnavislik maktabida yaratilgan asarlar o‘zining ahamiyatliligi jihatidan butun O‘rta Osiyo mintaqasi uchun muhim sanaladi. Qo‘qon xonligi tarixiga oid Qo‘qon tarixnavislik maktabi hamda Toshkent tarixnavislik maktablarida yaratilgan asarlar juda ko‘pchilikni tashkil qiladi va yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, ularning barchasi ham etarli darajada tadqiqotlarda to‘liq qamrab olinmagan yoki ayrim jihatlarigina o‘rganilgan. Shu o‘rinda yana bir holatga e‘tibor qaratish lozim, Qo‘qon xonligi tarixiga oid Sharqiy Turkistondagi ayrim qo‘lyozma asarlar ham mavjudki, ularni ham xonlik tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarga jalb qilinishi foydadan holi bo‘lmaydi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, yurtimiz mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng tarix fani va uning o‘rganilishiga hukumat tomonidan davlat

⁴ Yakobjanov Jasur Jamshitjonovich. O‘zbekiston zamonaviy tadqiqotlarida qo‘qon xonligi davlatchiligi masalasi (tarixshunoslik tahlili) [Matn]: monografiya / J.J. Yakobjanov. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 9 b.

siyosati darajasida e'tibor berila boshlandi. Tarix fanini rivojlantirish bo'yicha bir qator qarorlar qabul qilinib, hamda tarixchi olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etilib, ular oldiga bir qator vazifalar qo'yildi. Bu vazifalarning eng dastlabkilaridan biri sifatida xalqimiz tarixini haqqoniy va xolis yoritib berish masalasi o'rin olgan edi. Ushbu ma'suliyatli vazifani to'g'ri anglagan holda, tarixchilarimiz tomonidan bir qancha tadqiqotlar olib borildi. Shular qatorida Qo'qon xonligining tarixi borasida ham bir qancha yangi mazmun va yondashuvlar asosida tadqiqotlar yaratilib bu jarayon bugun ham davom etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirziyoyev. Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilandavom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". -T.: "O'zbekiston" NMIY,2018.- 29 b.
2. Yakobjanov J.J. "O'zbekiston zamonaviy tadqiqotlarida qo'qon xonligi davlatchiligi masalasi". – T.: 2024. – 5-10 b
3. Елшибаев С. Южный Казахстан и Кокандское ханство в XVIII – середине XIX веков.: Автореф. дисс ... канд. ист. наук. – Душанбе, 2013. – 27б
- 4.Похомов.Z.A "Qo'qon xonligi tarixshunosligining ayrim masalalari (tahlil va mulohazalar). -T.: 2007. - 48 b.